



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QIZIL KITOBIGA KIRITILGAN KARMAKDOSHLAR (LIMONIACEAE) OILASINI O'RGANISH

<sup>1</sup>Qarshiboyeva Nasiba Haydarovna,

<sup>2</sup>Jonuzakova Sevara Zuxriddin qizi,

<sup>3</sup>Payzimuratova Asaloy Dilshod qizi,

<sup>4</sup>Qo'ziboyeva Muxlisa Farxod qizi,

<sup>5</sup>Xoljigitova Rayhona Ibodulla qizi

Jizzax Davlat pedagogika universiteti

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7783685>

### ARTICLE INFO

Received: 22<sup>th</sup> March 2023

Accepted: 29<sup>th</sup> March 2023

Online: 30<sup>th</sup> March 2023

### KEY WORDS

*Qizil kitobi, Karmakdoshlar oilasi, kamyoblik darajasi, endem, muhofaza qilish choralari.*

### ABSTRACT

*O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan Karmakdoshlar oilasiga mansub turlar bo'yicha jadval tuzildi. Karmakdoshlar (Limonaceae) oilasiga mansub 6 tur Qizil kitobiga kiritilgan. Ayrim turlariga tavsiflar berildi.*

O'simliklar olamini muhofaza qilish insoniyat uchun juda katta hayotiy ahamiyatga ega. 2004-yil 3-dekabrda «Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida» gi qonunlar 2016-yil 21-sentabrda «O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida», 2018-yil 16-aprelda esa «O'rmon haqida»gi qonunlar yangi tahrirda qabul qilindi. Bu qonunlar barcha o'simliklar turlarini saqlab qolish, ularni asrab-avaylash va muhofaza qilishda muhim hujjat hisoblanadi.

Qizil kitobning 2019-yilgi nashriga ko'ra, O'zbekiston florasingin yo'qolib ketish xavfi ostida qolgan 329 turi kiritilgan. Bu turlarning taqdiri bilan Respublika mutaxassislari, olimlari muttasil shug'ullanib kelmoqda. Ularning olib borgan kuzatishlari ayrim o'simlik turlarining soni va maydoni ancha kengayganligini ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan o'simlik turlarining sonini solishtirib o'rganilganda 2009-yilgi ma'lumotiga ko'ra 321 tur kiritilgan bo'lsa, 2019-yilgi nashrida 48 oilasiga mansub 329 turdag'i o'simliklar o'rinni olgan.

Keyingi yillarda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, mamlakatimiz florasinga mansub yana 138 turdag'i o'simliklar Qizil kitobga kiritilishi lozim. 1998-yilgi ma'lumotlarga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan o'simlik turlari soni 301 ta bo'lgan bo'lsa, yangi nashrga 48 oilaga mansub 313 turdag'i o'simliklar kiritilgan. Karmakdoshlar oilasiga mansub 6 tur Qizil kitobiga kiritilgan. 2016 va 2019-yillarda nashr etilgan Qizil kitobda Deyarli sulisimon kirpio'ti (*Acontholimon subavenaceum Lincz*) kiritilgan. Lekin 2009-yilgi nashrda bu tur kiritilmagan edi. Biz shundan dalolat beradiki bu turdan noto'g'ri foydalanish oqibatida keyinchalik Qizil kitobga kiritilgan. Jizzax viloyatining Nurota tizmasida o'suvchi turlari aniqlandi. O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan Karmakdoshlar oilasiga mansub turlar bo'yicha jadval tuzildi. Ayrim turlariga tavsiflar berildi. Ularning himoya choralari ko'rib chiqildi. Mamlakatimiz florasingi muhofaza qilish insoniyat uchun katta ahamiyatga ega. Insonlar tabiatdan foydalangan holda unga zarar yetkazmoqda.



**Karmakdoshlar (Limonaceae)** - Hayotiy shakli ko'p yillik bo'lgan o'simliklardir. Bu oilaning 12 turkumga mansub 600 dan ziyod turi bor. O'zbekistonda 7 turkumga kiruvchi 31 turi o'sadi. Gullari to'g'ri, ikki jinsli, qizil, oq, to'q havorang, sariq va boshoqsimon yoki rovaksimon to'pgul hosil qiladi. Gulkosachasi pandasimon, oq va och binafsha rang. Guljobargi 5 ta, pastki qismi qo'shilgan, changchisi 5 ta. Mevasi bir urug'li yong'oqcha. Barglari oddiy, bazan patsimon qirqilgan, cheti tekis, ketma-ket joylashgan. Karmakdoshlar asosan cho'llarda, sho'rxok va sernam yerlarda, ekinlar orasida o'sadi. Karmakdoshlardan mahalliy xalq qadimda bo'yoq olishda foydalangan. Oshlovchi modda ham olinadi.

### 1-jadval.O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan

#### Karmakdoshlar oilasiga mansub turlar.

'/.	O'simlik nomi	Ilmiy nomi	Kamyob lik darajasi	Uzunligi	Tarqalgan joyi	Hayotiy shakli
1	Anna kirpio'ti	Acontholimon annae Lincz.	2 endem	10-12 sm	Surxondaryo vil.	Yarim buta
2	Ekaterina kirpiopti	Acontholimon ekatherinae (B. Fedtsch.) Czerniak.	2 endem	15-40 sm	Toshkent vil.	Yarim buta
3	Margarita kirpio'ti	Acontholimon margaritae Korovin et Lincz.	2 endem	25-40 sm	Toshkent vil.	Buta
4	Nuro'ta kirpio'ti	Acontholimon nuratavicum Zakirov	2 endem	20-sm	Jizzax vil. Samarqand vil. Navoiy vil.	Yarim buta
5	Deyarli sulisimon kirpio'ti	Acontholimon subavenaceum Lincz	2 endem	30-40 sm	Samarqand vil. Navoiy vil.	Yarim buta
6	Tuxumoyoq ildizbosh sefalorizum	Cephalorhizum oopodium Popov et Korovin	2 endem	40-60 sm	Surxondaryo vil. Turkmaniston	Ko'p yillik

2016 va 2019-yillarda nashr etilgan Qizil kitobida Deyarli sulisimon kirpio'ti (*Acontholimon subavenaceum* Lincz) kiritilgan. Lekin 2009-yilgi nashrda bu tur kiritilmagan. Bu shundan dalolat beradiki, bu turdan noto'g'ri foydalanish oqibatida keyinchalik Qizil kitobga kiritilgan.

#### Ayrim turlariga tavsif beramiz

**Nurota kirpio'ti.** Maqomi 2.Nurota tizmasidagi kamyob endemik tur.

**Qisqacha ta'rifi.** Diametri 20-sm keladigan yarimshar shaklidagi poyalari juda tig'iz yostiqcha hosil qiladigan yarim buta. Barglari ko'kimir-yashil, uch qirrali, cho'ziq nashtarsimon yoki deyarli bigizsimon, uzunligi 0,5-1 sm, eni esa 0,5-1 mm, qisqa va qalin tuklar bilan qoplangan. Gulpoysi bag'ridan uzunroq, balandligi 10-15 sm. Gullari



boshoqsimon to'pgul hosil qiladi. Kosachabargi qalin tukli, pushti rangli, tojbargi ham pushti rangli. Iyul-avgustda gullab, mevasi avgust-sentyabr oylarida yetiladi.

**Tarqalishi.** Jizzax, Samarqand va Navoiy viloyatlarida: Nurota tizmasida tarqalgan.

**O'sish sharoiti.** Tog'ning o'ta qismidagi toshli va shag'alli quruq yonbag'irlarda o'sadi.

**Soni.** Kam uchraydi. Kichik papulyatsiyalar (20-30 tadan 100-200 tupgacha) hosil qiladi.

**Ko'payishi.** Urug'idan ko'payadi.

**O'simlik soni va arealning o'zgarish sabablari.** Tabiatan kamyob endemik tur. Chorva boqiladigan yerlarda o'sganligi tufayli oyoqosti bo'lib, kamayib ketgan.

**Madaniylashtirilishi.** Ma'lumoti yo'q.

**Muxofaza choralari.** Nurota davlat qo'riqxonasida muhofaza qilinadi.

**Deyarli sulisimon kirpio'ti (*Acontholimon subavenaceum* Lincz.)** Maqomi 2. Nurota tizmasidagi kamyob endemik tur.

**Qisqacha ta'rifi.** Diametri 30-40 sm gacha yetadigan, yarimshar shaklidagi tikoni yostiqsimon yarim buta. Barglari yashil, yassi uch qirrali, ensiz qalami -- bigizsimon, uzunligi 1,5-2,5 sm, eni esa 1 mm ga yaqin, juda qisqa tukli. Gulpoysi bag'ridan uzun, bo'yi 10-15 sm, tuksiz, oddiy yoki kamshox. Gullari siyrak boshoqsimon to'pgul hosil qiladi. Boshoqchalar bir gulli. Guley-bargchalari tulsiz. Kosachasi siyrak tukli, pushti rangli, qirmizi tomirli, gultoji ham pushti rangli. Iyulda gullab mevasi avgust-sentyabr oylarida yetiladi.

**Tarqalishi.** Samarqand va Navoiy viloyatlari: Nurota tizmasining markaziy qismida tarqalgan (Sentopsoy, Ustuksay).

**O'sish sharoiti.** Tog'ning o'rta qismidagi toshli quruq yonbag'irlarda o'sadi.

**Soni.** Tabiatda kichik maydonda (taxminan 20-25 km<sup>2</sup>) tarqalgan. Yakka holda, ba'zan kichik to'p bo'lib uchraydi.

**Ko'payishi.** Urug'idan ko'payadi.

**O'simlik soni va arealning o'zgarish sabablari.** O'simlikning umumiy soni va to'plamining holati maxsus o'rganilmagan.

**Madaniylashtirilishi.** Ma'lumot yo'q.

**Muhofaza choralari.** Maxsus muhofaza choralari ishlab chiqilmagan. Nurota qo'riqxonasidagi himoya maydonida o'sadi.

Xulosa

1. O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan o'simlik turlarining sonini solishtirib o'rganilganda 2009-yilgi ma'lumotiga ko'ra 321 tur kiritilgan bo'lsa, 2019-yilgi nashrida 48 oilasiga mansub 329 turdag'i o'simliklar o'rinn olgan.
2. O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga karamdoshlar oilasiga mansub 6 tur vakillari kiritilganligi o'rganildi.
3. 2016 va 2019-yillarda nashr etilgan Qizil kitobida Deyarli sulisimon kirpio'ti (*Acontholimon subavenaceum* Lincz) kiritilgan. Lekin 2009-yilgi nashrda bu tur kiritilmagan. Bu shundan dalolat beradiki bu turdan noto'g'ri foydalanishi oqibatida keyinchalik Qizil kitobga kiritilgan.

### References:

1. O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobi 1-jild „Chinor ENK“ ekologik noshirlik kompaniyasi Toshkent 2009.



2. O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobi 1-jild „Chinor ENK“ ekologik noshirlik kompaniyasi Toshkent 2016.
3. O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobi 1-jild „Chinor ENK“ ekologik noshirlik kompaniyasi Toshkent 2019.
4. Qarshiboyeva N. H. Botanika Namangan 2016.
5. Тошибаев К. Ш. идр. Кадастр флоре Узбекистана: Самаркандская область. Ташкент 2018.
6. Есонкулов А. С. Флора Зааминского государственного заповедника. Автореферат диссертации соискание ученой степени к.б.н Ташкент. 2012г.
7. Qarshiboyeva N.H. Botanik terminlar lug'ati Namangan. 2016yil.